



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 1-mart

101-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ-76-son qarori ijrosi haqida”gi 105-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Muborak Ramazon oyining jamiyatimiz hayotida tinchlik-barqarorlik, saxiylik, shukronalik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni qaror toptirishdagi ahamiyatini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ-76-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 105-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ-76-son qarori ijrosi haqida”gi 105-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yilda Muborak Ramazon oyining birinchi kuni 1-mart kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (I.Nishonov), “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abdurahmanov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (O.Qodirov), “Nuroniylar” jamg‘armasi tuman bo‘limi (M.Saudmurodova) va boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda tumanda Ramazon oyini **milliy an‘ana va qadriyatlarga mos tarzda** o‘tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Ushbu fazilatli oyda **“Ramazon – saxovat, birdamlik va bag‘rikenglik oyi”** g‘oyasi asosida:

ehtiyojmandlar hamda ilm-ma'rifat yo'lida izlanayotgan yoshlarga yordam berish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga;

oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish hamda hurmat va mehr-oqibat qadriyatlarini tarannum etishga;

atrof-muhitni asrash, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh va qabristonlarni obodonlashtirish, ko'chatlar ekishga hamda Ramazon oyi bilan bog'liq tadbirlarda meyorga amal qilish va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor berilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (Sh.Kenjayevo), "Mingbuloq" gazetasi (Q.Akbarov)ga Ramazon oyini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov